

NORQOBILOV ASARLARIDA TASVIRLANGAN IT OBRAZI MOHIYATI

<https://doi.org/10.70728/conf.v2.i02.025>

Jalolova Barchinoy Botir qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

O'zbek tili va adabiyoti universiteti

bitiruvchisi

Jalolovabarchinoy@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezis orqali ijodkorning ba'zi asarlarida tasvirlangan it obrazlari ketma ketligi, asosiy motivlar tasviri, obrazlarning badiiy va metodologik tahlilini yoritib beriladi. Asarlardagi it obraziga yuklangan mano tahlil qilingan

Kalit so'zlar: it obrazi, motiv obrazi, metodologiya, tahlil, Oqbo'yin, Changalzor iti.

Abstract: This thesis highlights the sequence of dog images depicted in some of the artist's works, the depiction of main motifs, and the artistic and methodological analysis of the images. The meaning attached to the image of the dog in the works is analyzed.

Keywords: dog image, motif image, methodology, analysis, Akboyin, Jungle Dog.

Har bir inson yashashi davomida hayotning past balandliklariga duch keladi, bulardan qutulish uchun esa motivlardan foydalanishga urinadi. Motiv tushunchasi aslida shaxsni harakat va faoliyatga undovchi, ehtiyojning yuksak shakli sifatida paydo bo'luvchi ichki turtki hisoblanadi. Badiiy asarlarda motiv tushunchasi uning asl ma'nosidan biroz farqli bo'lib, asarning ajralmaydigan mavzusi motiv deb ataladi. Motivlar har mavzuda, har so'zda ham bo'lishi mumkin deydi B.V.Tomashevskiy 45

Normurod Norqobilning asarlarida it obrazi, odatda, insoniy fazilatlar va kamchiliklarni tahlil qilishning kuchli ramzi sifatida ishlatiladi. It obrazining funksional o'rnini nafaqat adabiy asarlarning badiiyligini oshirishda, balki o'quvchini ma'naviy va axloqiy qadriyatlar haqida o'ylashga undashda ham katta ahamiyatga ega. Yozuvchining tahlilga olingan "Oqbo'yin", "Changalzor iti", qissalari va "Mung" va "Ajal chorlagan kun" hikoyalarida itlar shunchaki hayvon sifatida emas, balki murakkab ijtimoiy va axloqiy muammolarni o'zida mujassam etuvchi ramziy qahramonlar sifatida ko'rsatilgan. Masalan, "Oqbo'yin" asarida Oqbo'yin obrazi or-nomus, bardosh, sadoqat va g'urur timsoli sifatida namoyon bo'lsa, Malla obrazi shafqatsizlik, kibr, hasad va nafratni ifoda

etadi. Xuddi shuningdek, "Ajal chorlagan kun" hikoyasida Yovqur obrazi bir umr sevgi va mehrdan benasib qolgan, lekin umrining so'nggida insoniylik timsoliga aylangan jonivor sifatida tasvirlanadi. Yovqurning bolakayga mehr qo'yib, vafot oldidan undan bexabar tarzda xayrlashishga uringani- chin sadoqat va fidoyilik timsolidir. Shu bilan birga, "Changalzor iti" qissasidagi Qoravoy obrazi orqali yozuvchi inson tarbiyasi va muhitning ta'siri haqidagi ijtimoiy haqiqatni it hayoti orqali ko'rsatadi. Qoravoyning yovvoyi muhitda ulg'ayib, keyinchalik bo'rilariga qo'shilishi insonni yomon muhit buzishi mumkinligi haqidagi falsafiy xulosaning obrazli ifodasidir. Bu orqali ijodkor muhit, tarbiya va ongli tanlov o'rtasidagi murakkab munosabatlarni it obrazi vositasida tahlil etadi. "Mung" hikoyalarida tasvirlangan itlar obrazi esa qarilikda yolg'izlik, mehr va do'stlik ehtiyojining badiiy ifodasi sifatida muhim o'rin egallaydi. Qariyalar bilan do'stona rishtalami bog'lagan, ularga sadoqat bilan xizmat qilgan bu hayvonlar obrazida sadoqat va mehrning eng sof shakli gavdalantiriladi.

Muallif, o'z asarlarida it obrazining ham yaxshi ham yomon qirralarini ochib berishni uddalagan. Itning yaramas fe'l-atvor ramzi sifatidagi tasviriga katta ahamiyat qaratib, bu orqali ijtimoiy va ma'naviy muammolarni ko'taradi va ularning oqibatlarini ochib beradi. It obrazining funksional o'rni nafaqat adabiy asarlarning badiiyligini oshirishda, balki o'quvchini ma'naviy va axloqiy qadriyatlar haqida o'ylashga undashda ham katta ahamiyatga ega. Normurod Norqobilning asarlarida it obrazi, odatda, insoniy fazilatlar va kamchiliklarni tahlil qilishning kuchli ramzi sifatida ishlatiladi. Masalan, yozuvchining "Changalzor iti" yoki "Qoraquyun" kabi asarlarida bu obraz orqali yaramas fe'l-atvorga ega bo'lgan shaxslar va ularning jamiyatga salbiy ta'siri ochib beriladi. Shuningdek, it obrazi orqali muallif axloqiy saboqlarni yetkazish strategiyasini ishlab chiqqan. Normurod Norqobilning badiiy asarlarida it obrazi, o'zining ramziy mazmuni bilan o'quvchini axloqiy mulohaza qilishga va o'z xatti-harakatlarini tahlil qilishga undaydi.

Xulosa qilib aytganda, Normurod Norqobil asarlarida it obrazining badiiy shakllanishi orqali yozuvchi inson va jamiyat o'rtasidagi axloqiy muammolarni chuqur falsafiy yo'sinda ifodalaydi. Yozuvchining qissalari va hikoyalarida it obrazlari oddiy

jonivorlar emas, balki ijtimoiy ongni uyg'otuvchi ramzlar sifatida maydonga chiqadi. Yozuvchi ijodidagi hayvon obrazlari, avvalo, adabiy obraz sifatida emas, balki o'zbek xalqining mentaliteti, ma'naviy qadriyatlari, axloqiy me'yorlari bilan bog'liq ramzlar sifatida talqin qilinmoqda. Bu obrazlar orqali yozuvchi hayotning chuqur ijtimoiy va axloqiy masalalarini ko'taradi. Tadqiqot jarayonida bu obrazlar tizimli ravishda o'rganildi, ular orasida it obrazining yetakchi o'rin tutishi isbotlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boltaboyev X., Mahmudov M. Adabiy-estetik tafakkur tarixi. Toshkent: Mumtoz so'z, 2016. 243 b.
2. Norqobilov N. Oqbo'yin. Toshkent: Cho'lpon, 2020. - 121 b.
3. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent: Navoiy Universiteti, 2018, - 190 b.
4. Norqobilov N. Tanlangan asarlar. Toshkent: Firdavs-Shoh, 2022. - 66 b.

